

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**MUSINOVA ZEBO TURABOVNA**

**FRANSUZ TARIXIY ROMANLARINING BADIY XUSUSIYATLARI (EJEN  
SYUNING “LATREOMON” VA “JAN KAVALYE, YOKI SEVENN  
ISHQIBOZLARI” ROMANLARI MISOLIDA)**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Musinova Zebo Turabovna**

Fransuz tarixiy romanlarining badiiy xususiyatlari (Ejen Syuning “Latreomon” va “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqi bozarlari” romanlari misolida) ..... 3

**Муסיнова Зебо Турабовна**

Художественные особенности французских исторических романов (на примере романов Эжена Сю «Латреомон» и «Жан Кавалье, или Фанатики Севенн») ..... 25

**Musinova Zebo Turabovna**

Artistic features of french historical novels (based on the novels of Eugène Sue “Lathréaumont” and Jean Cavalier, or the fanatics of the Cévennes”)..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**MUSINOVA ZEBO TURABOVNA**

**FRANSUZ TARIXIY ROMANLARINING BADIY XUSUSIYATLARI (EJEN  
SYUNING “LATREOMON” VA “JAN KAVALYE, YOKI SEVENN  
ISHQIBOZLARI” ROMANLARI MISOLIDA)**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4594 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.samdchi.uz](http://www.samdchi.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ikromxonova Furuza Ikromovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qarshiboyeva Uljon Davirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Sadullayeva Nilufar Azimovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «26» Sentyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (998666) 210-00-18; e-mail: [info@samdchi.uz](mailto:info@samdchi.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61944 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; e-mail: [info@samdchi.uz](mailto:info@samdchi.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» Sentyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil «10» Sentyabr dagi № 33 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida fransuz tarixiy romanlari tarixiy voqelik va badiiy-estetik ifoda sintezini amalga oshirgan yetakchi janrlardan biri sifatida e'tirof etiladi. XIX asrda shakllangan fransuz tarixiy romanlari nafaqat tarixiy faktlarni yoritish, balki ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar va gumanistik tamoyillarni badiiy-estetik jihatdan ifodalashga xizmat qilgan bo'lib, Aleksandr Dyuma, Ejen Syu va Prosper Merime kabi mualliflar ijodida<sup>1</sup> tarixiy materiallar, mifologik unsurlar hamda badiiy to'qima obrazlarning yaxlit estetik struktura doirasida uyg'unlashuvi roman janrining taraqqiyotida sifat jihatdan yangi bosqichni belgilagan. Xususan, tarixiy faktlar bilan badiiy to'qima o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik romanning chuqur g'oyaviy qatlamini shakllantirishga xizmat qilganligi bois, fransuz tarixiy romanlarini tahlil qilish jahon adabiyotshunosligi doirasida dolzarbligicha qolmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida fransuz tarixiy romanlari tarixiy voqelikni badiiy-estetik talqin etishning universal modeli sifatida alohida e'tiborga loyiq janr sifatida qaralmoqda. XIX asr fransuz adabiyotida shakllangan tarixiy romanlar tarixiy voqelikni san'atkorona talqin etish orqali davrga xos ijtimoiy-siyosiy muammolarni estetik darajada yoritish imkonini bergan bo'lib, ijtimoiy adolatsizlik, milliy-ozodlik harakati, diniy va mafkuraviy ziddiyatlar kabi dolzarb masalalarni badiiy obrazlar vositasida ifodalash orqali o'ziga xos g'oyaviy-estetik tizimni shakllantirgan. Zamonaviy adabiyotshunoslikda fransuz tarixiy romanlari poststrukturaviy, tarixiy-madaniy va intertekstual yondashuvlar asosida tahlil etilayotgani bois, ushbu janrni o'rganish filologik tadqiqotlar kontekstida dolzarb va metodologik jihatdan muhim ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligida nafaqat g'arb adabiyoti ilmiy an'analariga, balki jahon badiiy tafakkurining ilg'or yutuqlariga, xususan, fransuz adabiyotiga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Xalqaro miqyosda e'tirof etilgan yozuvchi va olimlarning individual-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda"<sup>2</sup>. Bugungi global adabiy jarayonlarda an'anaviy bir qutbli model o'rnini jahon adabiyotida yangi integrativ jarayonlarning shakllanishiga xizmat qiluvchi ko'p qatlamli, multiqutbli adabiy aloqalar tizimi egallayotgani kuzatilmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-6108-son

<sup>1</sup>Dumas A. Les Trois Mousquetaires. – Paris: Baudry, 1844. – 8 t., Sue E. Les Mystères de Paris. – Paris: Baudry, 1843–1844. – 10 t., Mérimée P. Carmen. – Paris: Michel Lévy, 1846. – 160 p.

<sup>2</sup>Мирзиёев Ш. М. Ҳар қайси давлат, ҳар қайси халқ интеллектуал салоҳияти, юксак маънавияти билан қудратлидир [Электрон манба]: Туркия Республикаси Президенти ҳузуридаги Халқ кутубхонасининг очилиш маросимидаги нутқ (Анкара, 20.02.2020 й.) // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3373> (murojat sanasi: 04.06.2025).

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlarini rivojlantirish to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevralda “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-son Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustda “Ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori hamda ushbu soha bilan bog‘liq boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo adabiyotshunosligida fransuz tarixiy romanlarining badiiy-estetik xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda Yevropa olimlari G.Lanson, P.Nora, G.Lukach, rus olimlardan D.Oblomiyevskiy, B.G.Reizov, S.N.Zenkin, I.G.Zolotix, G.A.Kalinnikova, N.S.Trapeznikova, M.S.Treskunova, S.R.Braxman, M.Treskunov, Ye.M.Yevnina, M.V.Tolmachev, N.A.Litvinenko, I.V.Makarova, I.M.Shutova, K.A.Chekalov, B.M.Jemchugova<sup>3</sup> tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda fransuz tarixiy romanining janr xususiyatlari, badiiy struktura, syujet tizimi hamda g‘oyaviy-estetik yo‘nalishlari konseptual yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Mazkur nazariy izlanishlar fransuz romanchiligining shakllanishi va taraqqiyoti borasida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham tarixiy roman janriga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqot ishlari I.Sultonov, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, O.Karimov,

---

<sup>3</sup> Лансон Г. История французской литературы. – М.: Изд-во иностр. лит., 1957. – 872 с., Нора П. Между памятью и историей: проблематика мест памяти // Новое литературное обозрение. – 1999. – №39. – С. 131–149., Georg Lukács; transl. from Germ. by Hannah and Stanley Mitchell. - 5th impr. - London : Merlin Press, 1982. - 363 p., Обломиевский Д. Французский романтизм: Очерки. – М.: Гослитиздат, 1947. – 356 с., Реизов Б. Г. Французский исторический роман в эпоху романтизма. – М.: Гослитиздат, 1958. – 567 с., Zenkin С. Н. Творчество Т. Готье: К проблеме позднего романтизма во Франции: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1986. – 24 с., Золотых И.Г. Т. Готье-новеллист: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1982. – 20 с., Калинникова Г.А. Французский исповедальный роман. – М.: Наука, 2002. С.175-200., Трапезникова Н. С. Романтизм Ж.Санд. – Казань: Казанский университет, 1976. – 98 с., Трескунов М. С. Жорж Санд. – Л.: Художественная литература, 1979. – 150 с., Брахман С. Р. «Отверженные» Виктора Гюго. – М.: Просвещение, 1968. – 104 с., Толмачёв М. В. Свидетель века Виктор Гюго [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.philology.ru/literature3/tolmachov-88.htm> (sana obrazenia: 09.06.2025)., Литвиненко Н. А. Французский исторический роман первой половины XIX века: Эволюция жанра [Электронный ресурс]. – М., 1999. – Режим доступа: [www.dissecat.com](http://www.dissecat.com) (дата обращения: 18.04.2021)., Макарова П. А. Французский исторический роман 1848–50 гг. // Вестник Тверского государственного университета. Серия: Филология. – 2013. – № 4. – С. 309–314., Шутова И. М. Французский исторический роман 1840–1850 гг. и становление популярной беллетристики (Э. Сю, А. Дюма, Ж. Барбе д’Оревийи): автореф. дис. ... докт. филол. наук. – М.: [б. и.], 2014. – 48 с., Чекалов К. А. Эжен Сю и его творчество в зеркале французской словесности и периодики конца XIX – начала XX вв. // Вестник Московского университета. Серия №9: Языкознание и литературоведение., Жемчугова Б. М. Художественная специфика жанра исторического романа // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – 2011. – №4. – С. 85–89. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/hudozhestvennaya-spetsifika-zhanra-istoricheskogo-romana> (murojat sanasi: 18.04.2021).

O.Sharafiddinov, U.Normatov, S.Mirvaliyev, A.Kattabekov, B.Karimov. O‘zbek tarjima ilmidagi izlanishlarda esa M.N.Xolbekovning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida fransuz adabiyotining yirik namoyandalari – Stendal, Viktor Gyugo, Prosper Merime, Onore de Balzak hamda Gi de Mopassan ijodining o‘zbek tiliga tarjimasi tizimli tarzda tanqidiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. A.A.Qosimov tadqiqotlarida A. de Sent-Ekzyuperi va A.Kamyuning ijodi misolida tipologik o‘xshashlik va o‘zaro ta’sir muammolari nazariy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, U.D.Qarshiboyeva, R.X.Shirinoва, F.I.Ikromxonova hamda D.F.Toirovalar tomonidan<sup>4</sup> yozilgan doktorlik dissertatsiyalarida fransuz adabiyotining ayrim jihatlari, tarjimasi va g‘oyaviy-badiiy tahliliga oid muhim masalalarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, G‘arb Yevropa, xususan fransuz adabiyoti doirasidagi tarixiy roman janri o‘zbek adabiyotshunosligida hanuzgacha maxsus va kompleks ilmiy tadqiqot predmeti sifatida izchil va chuqur o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ejen Syu ijodiga mansub tarixiy romanlarning janr va uslub, g‘oyaviy-estetik xususiyatlari hamda ijtimoiy yo‘nalishini chuqur ilmiy tahlil etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

**Tadqiqotning vazifalari:**

XIX asr fransuz jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy omillarning adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri nuqtai nazaridan Ejen Syuning ijodiy faoliyatini yuzaga keltirgan tarixiy-madaniy kontekstini tahlil qilish, shuningdek, “Latreomon” va “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanlarida aks etgan muhim tarixiy voqealar hamda ijtimoiy jarayonlarni ilmiy jihatdan asoslash;

Ejen Syu tarixiy romanlarining XIX asr fransuz adabiy tizimidagi o‘rnini aniqlash, uning asarlarida tarixiy, ijtimoiy va sarguzasht janrlari elementlarining sintezi asosida yuzaga kelgan janr xususiyatlarini tahlil etish, shuningdek, muallifning badiiy-estetik yondashuvini Valter Skott romanchilik an‘analari bilan ilmiy asosda ilmiy tahlil qilish va o‘ziga xos farqlanuvchi jihatlarni yoritish;

Ejen Syu romanlarida ilgari surilgan asosiy g‘oyalar va tematik yo‘nalishlarni aniqlash, “Latreomon” hamda “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” asarlarining syujet qurilishi, obrazlar tizimi va g‘oyaviy mazmunini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil etish, shuningdek, ushbu asarlar o‘rtasidagi badiiy-estetik tafovutlarni ilmiy mezonlar asosida ochib berish;

---

<sup>4</sup> Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 256 b., Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati. – Toshkent: Fan, 1966. – 180 b., Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969. – 240 b., Kattabekov A. Художественное воплощение личности и исторической эпохи в современной прозе: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 48 с., Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия): Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 54 с., Қосимов А.А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А. де Сент-Экзюпери ва А. Камю ижоди мисолида): Автореф. дис. ... филол. фан. номз. – Тошкент, 2007. – 25 б., Қаршибоева У. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусияти: Автореф. дис. ... филол. фан. докт. – Тошкент, 2016. – 42 б., Ширинова Р.Х. Воссоздание национального ландшафта вселенной в художественном переводе: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Тошкент, 2017. – 57 б., Икромхонова Ф.И. Поэтика исторического произведения в узбекской и англоязычной прозе: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Тошкент, 2021. – 80 б., Тоирова Д.Ф. Французский реалистический роман XIX века (проблема жанра и метода): Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Самарканд, 2023. – 76 с.

Ejen Syu nasriga xos badiiy ifoda vositalarini, xususan kontrast, ramziy obrazlar va dramatiklashtirish kabi uslublardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, personajlarning ijtimoiy tipiklashuvi, ruhiy teranligi va badiiy struktura doirasidagi funksional vazifalarini tahliliy jihatdan asoslash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Ejen Syuning XIX asr Fransiya jamiyatidagi tarixiy voqealar, ijtimoiy ziddiyatlar va ideologik tendensiyalar o'zgacha badiiy talqinda ifodalangan "Latreomon" va "Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari" nomli romanlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Ejen Syuning romanlari misolida XIX asrning birinchi yarmida shakllangan fransuz tarixiy romanining janr-uslubiy va g'oyaviy-estetik xususiyatlari, shuningdek, Fransiyaning XVIII–XIX asrlar davridagi tarixiy-siyosiy konteksti, romantizm adabiy oqimining shakllanish jarayoni va G'arb, xususan, fransuz adabiy an'alarida tarixiy roman janrining taraqqiyoti bilan bog'liq nazariy manbalar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tadqiqotning ilmiy maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarixiy-adabiy tahlil, tuzilma-tipologik yondashuv hamda komparativistik tadqiqot metodlaridan samarali foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fransuz tarixiy romanchiligida tarixiy fakt va badiiy to'qimaning o'zaro nisbatiga oid konseptual yondashuv asosida ilk bor Ejen Syuning tarixiy roman shakllanishidagi roli ilmiy jihatdan asoslangan;

Ejen Syu romanlarida voqelik tasvirining tarixiy, sarguzashtli va ijtimoiy qatlamlari, personajlar tizimi, ijtimoiy ziddiyat hamda g'oyaviy-badiiy diskurs dinamikasi asosida o'ziga xos poetik model konseptual darajada aniqlanib, bu modelning shakllanish omillari va badiiy funksiyalari ilmiy asosda yoritilgan;

"Latreomon" va "Jan Kavalye yoki Sevensh ishqibozlari" romanlarida mifologik qatlam, tarixiy shaxslar hamda badiiy to'qima obrazlar o'rtasidagi tipologik uyg'unlik, shuningdek milliy-ozodlik, fuqarolik, diniy va siyosiy mustabidlik muammolarining badiiy talqini orqali voqelikni idrok etishning o'ziga xos konseptual modeli takomillashtirilgan;

Ejen Syu asarlarida tarix, g'oya va badiiy to'qima qatlamlari o'rtasidagi murakkab integratsiya XIX asr tarixiy romanlarida voqelikni estetik anglashning yangicha adabiy yondashuvi sifatida konseptual tahlil asosida ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ejen Syuning tarixiy nasriga xos bo'lgan asosiy janriy, kompozitsion va tuzilmaviy xususiyatlar tahlil qilinib, ularning XIX asr fransuz va Yevropa adabiyoti tizimidagi o'rni aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muallif ijodida ijtimoiy tanqid, publitsistik ruh va hikoyalash dinamikasini o'zida mujassam etgan o'ziga xos tarixiy roman modeli shakllangani ilmiy asosda asoslab berildi. Ushbu ilmiy xulosalar chet el adabiyoti, tarixiy poetika va roman janri evolyutsiyasiga oid fanlarda, shuningdek, tegishli o'quv kurslari mazmunini boyitishda samarali qo'llanilishi mumkin.

"Latreomon" va "Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari" romanlaridagi tarixiy kontekst hamda badiiy tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish orqali yozuvchining o'tmishni badiiy rekonstruksiya qilish asosida zamonaviy ijtimoiy-siyosiy voqelikni idrok etishga qaratilgan estetik yondashuvi ochib berildi. Tadqiqot

natijalari XIX asr fransuz adabiyotiga bag'ishlangan o'quv va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda, shuningdek madaniy xotira, ijtimoiy stratifikatsiya va tarixiy voqelikni badiiy talqin etishga oid fanlararo kurslar mazmunini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tekshirilgan ilmiy manbalar va original badiiy matnlardan foydalanilgani, tahlilda kompleks va tizimli yondashuv qo'llangani, tarixiy-madaniy kontekstning to'g'ri talqin qilingani, shuningdek zamonaviy filologik fanning umum e'tirof etilgan nazariy va metodologik tamoyillariga tayanilgani bilan ta'minlanadi. Olingan xulosalarning ishonchligi ularning avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslanishi, ichki mantiqiy asoslanganligi va tahliliy jarayonlarning qayta tiklanish imkoni orqali tasdiqlanadi. Tadqiqotning amaliy natijalari ekspertlar tomonidan baholangani, uning asosiy qoidalari ommaviy muhokamalarda, ilmiy seminar va konferensiyalarda ko'rib chiqilgani, natijalarning ilmiy jamoatchilik tomonidan verifikatsiya qilinishini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda XIX asr fransuz adabiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan tarixiy roman janrining janr-uslubiy va g'oyaviy xususiyatlari Ejen Syu ijodi misolida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari filologiya sohasidagi ta'limiy va ilmiy jarayonlarda, xususan tarixiy roman poetikasini o'rgatishga qaratilgan maxsus kurslarda, adabiy-tarixiy tahlilga asoslangan metodik qo'llanmalarni yaratishda samarali qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, Ejen Syuning "Latreomon" va "Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari" kabi romanlarini o'rganish orqali talabalarda XIX asr Fransiyasining ijtimoiy-siyosiy muhitiga oid konseptual bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, uning natijalarini Fransiya adabiyoti, madaniyati va tarixi bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslar, o'quv dasturlari hamda amaliy topshiriqlar tizimini shakllantirishda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Olingan ilmiy xulosalar Ejen Syuning badiiy-estetik qarashlarini o'rganish, shuningdek Yevropa adabiy an'analari tarixiy roman janrining shakllanishiga oid kelgusi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, dissertatsiya materiallari Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi adabiy va ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan xalqaro gumanitar hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarda qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fransuz tarixiy romanlarining badiiy xususiyatlari (Ejen Syuning "Latreomon" va "Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari" romanlari misolida) orqali janrning uslubiy va tematik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tahlil asosida:

fransuz tarixiy romanchiligida tarixiy fakt va badiiy to'qimaning o'zaro nisbatiga oid konseptual yondashuv asosida Ejen Syuning tarixiy roman shakllanishidagi o'rnini ilk bor ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan tahliliy xulosalar 2022–2024-yillar davomida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, AQSh Davlat departamenti, O'zbekistondagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi hamkorligida amalga oshirilgan va AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan "The English Access Microscholarship

Program” nomli xalqaro loyiha doirasida ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 12-dekabrda 155/02-sonli ma’lumotnoma). Natijada, fransuz tarixiy romanining badiiy xususiyatlari, xususan Ejen Syuga xos obraz yaratish texnikasi hamda uslubiy yondashuvlariga oid ilmiy tahlillar amaliy o’quv faoliyatiga samarali joriy etilib, chet el adabiyotini o’qitishda adabiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilgan;

Ejen Syu romanlarida voqelik tasvirining tarixiy, sarguzashtli va ijtimoiy qatlamlari, personajlar tizimi, ijtimoiy ziddiyat hamda g’oyaviy-badiiy diskurs dinamikasi asosida shakllangan o’ziga xos poetik model konseptual darajada aniqlanib, uning shakllanish omillari va badiiy funksiyalari ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu taklif va ilmiy xulosalar O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Samarqand mintaqaviy bo’linmasi faoliyatida 2024-yil 27-dekabrda 01-03/1003-sonli rasmiy ma’lumotnomaga muvofiq ijodiy seminar dasturlarini ishlab chiqishda samarali qo’llangan. Natijada, tadqiqot natijalari yosh avlodda tarixiy ongini shakllantirish, adabiy-estetik tafakkurni rivojlantirish, milliy va jahon adabiy merosiga ongli munosabatni kuchaytirish hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani yuksaltirishda amaliy ahamiyat kasb etganligi bilan tasdiqlangan;

“Latreomon” va “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanlarida mifologik qatlam, tarixiy shaxslar hamda badiiy to’qima obrazlar o’rtasidagi tipologik uyg’unlik, shuningdek milliy-ozodlik, fuqarolik, diniy va siyosiy mustabidlik muammolarining badiiy talqini orqali voqelikni idrok etishning o’ziga xos konseptual modeli takomillashtirilganligi bo’yicha taklifi 2024-yil dekabr oyida “Assalom, Samarqand” teleko’rsatuvi ssenariysini ishlab chiqishda va tadqiqot xulosalarini muhokama qilishda qo’llanilgan (2025-yil 4-yanvarda 01-07/3-son ma’lumotnoma). Natijada, Ejen Syu romanlarida ifodasini topgan tarixiy va ijtimoiy muammolarning badiiy talqini asosida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, xorijiy adabiy merosni zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlar orqali tahlil qilish hamda ommaviy axborot vositalarida adabiy-ma’naviy kontentni boyitishga erishilgan;

Ejen Syu asarlarida tarix, g’oya va badiiy to’qima qatlamlari o’rtasidagi murakkab integratsiya XIX asr fransuz tarixiy romanlarida voqelikni estetik anglashning yangicha adabiy yondashuvi sifatida konseptual tahlil asosida ochib berilgan. Bu yondashuv asosida ishlab chiqilgan tahliliy xulosalar 2022–2023-yillarda O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Madaniy-ma’rifiy muassasalar, nomoddiy madaniy merosni rivojlantirish sho’basi tomonidan amalga oshirilgan va I-203-4 raqamli “Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg’unlashtirish” nomli fundamental loyiha doirasida amaliy faoliyatga joriy etilgan (2025-yil 14-iyul, №02-14-06-906-sonli ma’lumotnoma). Natijada, tadqiqot xulosalari fransuz tarixiy romaniga oid poetik va g’oyaviy-metodik yondashuvlar asosida tarixiy-estetik tafakkurni shakllantirish, millatlararo muloqotni rivojlantirish va adabiy qadriyatlarni targ’ib qilishga yo’naltirilgan loyihalarda samarali qo’llanilgan. Shuningdek, XIX asr fransuz adabiyoti va tarixiy poetikaga oid o’quv-uslubiy materiallar tayyorlanib, ular adabiyotshunoslik va madaniyatlararo muloqot fanlarida amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola, xalqaro ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, xalqaro konferensiyalarda 8 ta maqola va respublika ilmiy konferensiyalarida 2 ta maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 166 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'ekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiya, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**1830-yillar fransuz adabiyoti: romantik tarixiy roman taraqqiyoti**" deb nomlanib, unda Yevropa adabiyotida romantizmning paydo bo'lishi va uning fransuz adabiyotiga ta'siri, shuningdek, ushbu davrda fransuz adabiyotining rivojlanishiga xizmat qilgan ijtimoiy-siyosiy sharoitlar tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy roman janrining shakllanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va ularning fransuz adabiyotidagi o'rni yoritilgan.

Ushbu bobning "Tarixiylik konsepti va uning romantizm davri falsafiy-badiiy qarashlaridagi o'rni" deb nomlangan birinchi faslida "tarixiylik" tushunchasining mazmuni va uning romantizm davridagi falsafiy-estetik qarashlar kontekstida qanday talqin etilgani izohlangan. Ushbu bobda, xususan, XIX asrning birinchi yarmi adabiy jarayoni doirasida "tarixiylik" konseptining estetik-falsafiy mohiyatini aniqlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tarixiylikka bo'lgan yondashuv romantik tafakkurda qanday shakllangani, tarixiy voqealar va shaxsiyatlarning badiiy ifodalanishi orqali o'tmishga estetik munosabat qanday aks etgani ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Fransiyada romantizmning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni 1789–1794-yillardagi inqilobiy voqealardan 1848-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olib, burjuademokratik o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda kechgan. Ushbu tarixiy sharoit romantizmning g'oyaviy-estetik mezonlari va adabiy yo'nalish sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. Buyuk Fransuz inqilobi romantizm va u bilan bevosita aloqador bo'lgan tarixiy roman janrining yuzaga kelishiga zamin yaratgan omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asr tarixiy romanini romantizmning falsafiy va badiiy kontekstida tahlil qilish tarixiylik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Tarixiylik – bu voqelikni vaqt o'tishi bilan o'zgarib va rivojlanib boradigan jarayon sifatida o'rganishga yo'naltirilgan uslubiy yondashuv sifatida shakllangan. Allaqachon Qadimgi va O'rta asrlarda tarixni "Insonlarni birlashtiruvchi, fazoviy-vaqtinchalik

chegaralarga ega, taraqqiyotining ma'no va ichki mantiqiga ega yagona hodisa"<sup>5</sup> sifatida talqin qilishga asos bo'lgan nazariy g'oyalar shakllanib ulgurgan edi. Ma'rifat davri tarixiylik konsepsiyasining taraqqiyotiga Viko, Volter, Russo, Didro va Gerderning asarlarida muhim turtki berdi. XVIII asr tarixshunoslikka ratsional tahlil uslublarining faol tatbiq etilishi bilan ajralib turadi. Ilk bor ilm-fan doirasida alohida tarixiy davrlarning yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlarini va ularning ketma-ket almashinuvi sabablarini tushuntirib beruvchi umumiy qonuniyatlarni aniqlashga urinishlar amalga oshirildi.

XIX asr birinchi yarmida tarixiylik konsepsiyasining shakllanishi romantik adabiyotning badiiy-estetik tamoyillariga chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lib, tarixiy roman janrining mustaqil adabiy shakl sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi. Fransuz inqilobi va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy voqealar sharoitida tarixiy jarayonlarga bo'lgan individual va milliy yondashuvlar kuchayib, badiiy tafakkurda tarixga falsafiy-estetik munosabat shakllandi. V.Skott, A.de Vigny, A.Dyuma, Ejen Syu, P.Merime, O.de Balzak kabi mualliflar ijodida tarixiy fakt va badiiy to'qimaning sintezi asosida tarixga yangi estetik yondashuv ifodasini topdi. Bu jarayon tarixiy roman janrining ijtimoiy-ma'naviy mazmunini boyitdi va uni XIX asr madaniy tafakkurining muhim shakli sifatida shakllantirdi.

Bobning ikkinchi fasli "Tarixiy roman janri: uning kelib chiqishi, evolyutsiyasi va zamonaviy adabiy-nazariy istiqbollari" deb nomlanib, unda tarixiy roman janrining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar, uning adabiy taraqqiyot bosqichlari hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi metodologik yondashuvlar doirasida tutgan o'rni tahlil qilindi.

XVII-XVIII asrlar adabiyotida tarixiy mavzularni badiiy talqinga jalb etishning dastlabki tajribalari kuzatiladi. Bu jarayonda mualliflar o'z qahramonlarini uzoq tarixiy davrlarda yashagan shaxslar sifatida tasvirlashga intilganlar. Ayniqsa, XVII asrda antik davr va O'rta asrlarga bo'lgan qiziqish kuchli bo'lib, bu holat Onore Dejyurfning "Astreya" (1607–1627), "Kleliya, Rim tarixi" (1654–1660) hamda "Artamen, yoki Buyuk Kir" (1649–1653) kabi asarlarining mashhurligida yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, Ma'rifat davriga xos bo'lgan tarixga bo'lgan qiziqish tarixiy roman janrining shakllanishida muhim rol o'ynaganini ta'kidlash mumkin, va uning ilk badiiy talqinlari bu janr uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan. Valter Skottning novatorlik asarlari tufayli tarixiy roman yanada aniqroq janr belgilari va shakliga ega bo'ldi hamda keyinchalik XIX asrning birinchi yarmi fransuz yozuvchilari (A. de Vingi, P.Merime, O. de Balzak, V.Gyugo) ijodida ijodiy tarzda qayta talqin qilinib, rivojlantirildi. Bu an'ana asrning o'rtalarida ijod qilgan mualliflar (E.Syu, A.Dyuma, J.Borbe d'Oreviyyi) romanlarida ham davom ettirildi.

Tarixiy romanni o'rganishga bag'ishlangan asosiy tadqiqotlardan biri Boris Georgiyevich Reizovning "Romantizm davridagi fransuz tarixiy romani"<sup>6</sup> (1958) tadqiqotidir. Unda muallif tarixiy roman tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: bu – "voqealar badiiy talqinda bayon etilgan asar bo'lib, u voqealar hozirgi zamondan turlicha vaqt masofasi bilan ajralgan o'tmishga tegishlidir"<sup>7</sup>. Uning fikriga ko'ra,

<sup>5</sup><http://konf.x-pdf.ru/18istoriya/357672-1-francuzskiy-istoricheskij-roman-1840-1850-h-stanovlenie-populyarnoy-belletristiki-e-dyuma-barbedoreviyi.php> (murojat sanasi: 11.09.2021)

<sup>6</sup> Reizov B.G. Французский исторический роман в эпоху романтизма. – Л.: Худож. лит., 1958.С.568.

<sup>7</sup> Там же.

ushbu janrning shakllanishiga nafaqat Valter Skott asarlari, balki Shatobrianning “Shahidlar” (1809) dostonining ham ta’siri katta bo‘lgan. Mazkur asar tarixiy nasr taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan.

Tarixiy roman rivojini tahlil qilishda sotsiologik yondashuv bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu yondashuvni qo‘llagan olimlar orasida L.Goldman, R.Eskarpi va P.L.Rey<sup>8</sup> kabi fransuz va rus tadqiqotchilarini alohida qayd etish mumkin. N.A.Litvinenko tadqiqotining muhim jihati tarixiy romanning XIX asr “ommaviy” adabiyoti bilan o‘zaro munosabatini o‘rganishdan iborat. Ushbu mavzu XX asr o‘rtalarida adabiyotshunoslikda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi<sup>9</sup>. Adabiyotshunoslar “ommaviy adabiyot” sohasida janrning tematik modifikatsiyalari mavjudligini ta’kidlab, bu jarayonda roman-felyetonning ahamiyatini alohida belgilashdi. Fransuz adabiy tanqidchiligi esa tarixiy romanning bu qatlamga, ayniqsa, roman-felyetonni kiritganini bir ovozdan tasdiqladi<sup>10</sup>.

XIX asr tarixiy romanchiligi uchun ma’lum bir tarixiy davrga bag‘ishlangan romanda nafaqat tarixiy qahramonlar, faktlar va mahalliy kolorit elementlaridan foydalanish, balki o‘sha davr intellektual madaniyatining turli, ayniqsa, adabiy-badiiy yodgorliklarida to‘plangan uslubiy vositalar yordamida “zamon ruhini qayta tiklash” tamoyili asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil tarixiy romanlarning badiiy yaxlitligi va davrning ijtimoiy, madaniy muhitini to‘g‘ri aks ettirishda muhim o‘rin tutadi<sup>11</sup>. Beynarovichning fikricha, tarixiy romanning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda tarixiy voqealar birinchi o‘rinda turadi va ular batafsil o‘rganilib, badiiy talqin qilinadi. Bu yondashuv tarixiy roman janrining asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, voqealar va shaxslarning tarixiy kontekstda to‘liq tasvirlanishini ta’minlaydi.

Tarixiy roman – bu o‘tmishga nazar tashlashning oddiy shakli emas, balki insoniyat xotirasi, ijtimoiy adolat va g‘oyaviy izlanishlar majmuasidir. Janrning asosini tashkil etgan tarixiy fakt va badiiy to‘qimaning sintezi o‘quvchini ham tafakkur, ham tuyg‘u orqali tarix bilan muloqotga chorlaydi. Romantizm davrida ushbu janr nafaqat estetik ifoda, balki fuqarolik pozitsiyasi, milliy ong va falsafiy mushohadaga xizmat qiluvchi vositaga aylandi. Shu tariqa, tarixiy roman zamonaviy adabiy tafakkurda doimiy qayta talqin etilayotgan, o‘z shakl va mazmunini yangilab borayotgan moslashuvchan janr sifatida qaraladi.

Bobning “XIX asr birinchi yarmi Fransiya va Fransiya roman-felyeton janrining yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari va uning ommaviy adabiyot shakllanishidagi o‘rni” deb nomlangan uchinchi faslida roman-felyeton janrining shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda bu janrning yuzaga kelishi Ejen Syu ijodi va XIX asr fransuz adabiyotida tarixiy roman institutlashuvi jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq ekani asoslanadi.

Mamlakatimiz adabiyotshunosligida tarixiy romanga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlar orasida N.Starikova<sup>12</sup>, Yu.Balkin<sup>13</sup> va V.Malkina<sup>14</sup>larning maqolalari

<sup>8</sup> Rey P.-L. *Le Roman*. – Paris: Hachette, 1992. – (Coll. «Contours littéraires»). – P. 46–47.

<sup>9</sup> Литвиненко Н.А. Французский исторический роман первой половины XIX века: эволюция жанра: учеб. пособие. – М.: Изд-во УРАО, 1999. – С. 4–5.

<sup>10</sup> Там же.

<sup>11</sup> Малкина, В. Поэтика исторического романа: проблема инварианта и типология жанра. – М.: Изд-во Московского гуманитарного университета, 2002. – 220 с.

<sup>12</sup> Старикова, Н. Исторический роман: к проблеме типологии жанра. – М.: Издательство Московского университета, 2007. – 215 с.

<sup>13</sup> Балкина, Ю. Исторический роман в современном своём выражении. – М.: Наука, 2002. – 180 с.

alohida ta'kidlash mumkin. Ularning ishlari tarixiy roman janrining rivojlanishi, uning badiiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, zamonaviy adabiyotda tutgan o'rni haqida chuqur tahlillarni taqdim etadi. Ayniqsa, G'arb adabiyotshunoslari Jil Nello va Jan Moline qarashlari diqqatga sazovordir. Jil Nello "Tarixiy roman panoramasi" (1969)<sup>15</sup> asarida janrga quyidagicha ta'rif beradi: "Haqiqiy va ishonarli narsalardan tashkil topgan, nasrda yozilgan qissa bo'lib, unda muallif o'tmishdagi mashhur shaxslar obrazini, davr ruhini, o'tmish kishilarining intilishlarini, bir so'z bilan aytganda, davrni qayta yaratishga intiladi. Shuningdek, u ehtiroslar, fe'l-atvorlar yoki tasvirlangan sarguzashtlarning g'ayrioddiylik bilan kitobxonlar e'tiborini tortishga harakat qiladi"<sup>16</sup> Jil Neloning fikricha, tarixiy romanning muhim jihatlaridan biri "zamonaviy hayotimizdan farq qiladigan tafsilotlarni tiklash"<sup>17</sup>dir, bu orqali o'tmishning o'ziga xosligini va uning har bir detalini aks ettirishga intiladi.

Jan Molinoning ta'kidlashicha, tarixiy romanni yaratishda yozuvchi xayoliy voqelikni shakllantiradi, bu yerda badiiy to'qima komponentlari va ishonchli tarixiy voqealar uzviy bog'lanadi. "Haqiqiy tarix romanga singib ketadi, bu yerda u to'qima tarix bilan bog'lanadi"<sup>18</sup>. Muallif niyati hikoyaning faktik va funksional rejalarining ongli o'zaro ta'siriga qaratilgan bo'lib, bu ularning kesishish zonalarini ataylab yaratishda ifodalanadi. Janrning xronologik chegaralanishi masalasiga to'xtalar ekan, tadqiqotchi: "Tarixiy roman 1830 yoki 1848-yillarda Valter Skott bilan tug'ilmagan va vafot etmagan,"<sup>19</sup> – deb ta'kidlaydi. Binobarin, janrning vaqt chegaralari noaniqroq va moslashuvchan bo'lib qoladi<sup>20</sup>. Bu yondashuv tarixiy roman janrining rivojlanishidagi o'zgaruvchanlikni va turli davrlarga moslashishini ko'rsatadi.

J.Janjambning ta'kidlashicha, "tarixiy roman" tushunchasi XIX asrning boshlarida paydo bo'lgan, ammo dastlab u yuqori obro'ga ega bo'lmagan: "Bu asar yomon uslubda yozilgan, chunki muallifning o'zi tan olganidek, tarixiy romandir" (Mercure de France, 1806-yil 12-aprel)<sup>21</sup>. Adabiyotshunosning fikricha, romantizm davrida fransuz tarixiy romanining rivojlanishi "Asr kasalligi" deb nomlanuvchi ijtimoiy-madaniy hodisa bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi uzilish hissi, xavotir va yo'qolgan uyg'unlikka intilish bilan tavsiflanadi<sup>22</sup>. "Asr kasalligi" Fransiyada zamonaviy tarixiy roman rivojlangan kontekstni belgilab berdi. Bu fenomen romantizmning ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqligini, tarix va zamon o'rtasidagi uyg'unlikni tiklashga bo'lgan intilishni ifodalaydi<sup>23</sup>.

XIX asrning birinchi yarmidagi fransuz adabiyotiga bag'ishlangan bobda mazkur davr adabiy jarayonining tizimli tahlili amalga oshirilib, janr va uslub shakllarining evolyutsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Romantizmning yetakchi badiiy yo'nalish sifatida qaror topishi hamda yangi janr modellarining, xususan, tarixiy roman janrining shakllanishi va taraqqiyoti davr adabiy hayotining asosiy

<sup>14</sup> Малкина, В. Я. Поэтика исторического романа: проблема инварианта и типология жанра: приложение к серии «Литературный текст: проблемы и методы исследования». – Тверь: ТвГУ, 2002. – 140, [4] с

<sup>15</sup> Nélló J. Panorama du roman historique. – Paris; Bruxelles: SODI, 1969. – P. 17.

<sup>16</sup> Там же.

<sup>17</sup> Там же.

<sup>18</sup> <http://dlib.rsl.ru> (murojat sanasi: 18.04.2023)

<sup>19</sup> Ibid P.19.

<sup>20</sup> Ibid P.235.

<sup>21</sup> <http://dlib.rsl.ru> (murojat sanasi: 18.04.2023)

<sup>22</sup> Реизов, Б. Г. Французский исторический роман в эпоху романтизма. – Л.: Художественная литература, 1958. – 452 с.

<sup>23</sup> <http://dlib.rsl.ru>. (murojat sana: 21.01.2023)

bosqichlari sifatida aniqlangan. Tadqiqotda fransuz romantizmi estetikasining o'ziga xos jihatlari, jumladan, subyektivlikning kuchayishi, milliy tarixga murojaat, ijtimoiy muammolarga qiziqish hamda obrazlarning psixologik chuqurligi kabi xususiyatlar ochib berilgan. Olib borilgan tahlillar XIX asr Fransiyasining madaniy va adabiy manzarasini shakllantirishda romantizm yo'nalishining tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash imkonini bergan, shuningdek, Ejen Syu ijodidagi tarixiy romanlarning badiiy xususiyatlarini tadqiq etish uchun muhim metodologik asos yaratganligi tadqiq etilgan.

XIX asrning birinchi yarmidagi fransuz adabiyotiga bag'ishlangan bobda mazkur davr adabiy jarayonining tizimli tahlili amalga oshirilib, janr va uslub shakllarining evolyutsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Romantizmning yetakchi badiiy yo'nalish sifatida qaror topishi hamda yangi janr modellarining, xususan, tarixiy roman janrining shakllanishi va taraqqiyoti davr adabiy hayotining asosiy bosqichlari sifatida aniqlangan. Tadqiqotda fransuz romantizmi estetikasining o'ziga xos jihatlari, jumladan, subyektivlikning kuchayishi, milliy tarixga murojaat, ijtimoiy muammolarga qiziqish hamda obrazlarning psixologik chuqurligi kabi xususiyatlar ochib berilgan. Olib borilgan tahlillar XIX asr Fransiyasining madaniy va adabiy manzarasini shakllantirishda romantizm yo'nalishining tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash imkonini bergan, shuningdek, Ejen Syu ijodidagi tarixiy romanlarning badiiy xususiyatlarini tadqiq etish uchun muhim metodologik asos yaratganligi tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Fransuz romantik an'analari doirasida Ejen Syuning tarixiy romanlari**" deb nomlangan bo'lib, unda yozuvchining 1830-yillarga oid ijodiy faoliyati va bu davrdagi g'oyaviy-badiiy rivojlanishiga oid masalalar tahlil etilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli "Ejen Syuning XIX asrning 30-yillaridagi romantik tarixiy romanlari" deb nomlangan.

1823-yildan 1827-yilgacha bo'lgan davr Ejen Syu hayotida muhim bosqich bo'lib, u dunyo bo'ylab amalga oshirgan sayohatlari davomida turli madaniyatlar, ijtimoiy tizimlar va hayot tarzlari bilan tanishgan. Ushbu safarlar unga nafaqat keng qamrovli estetik va madaniy taassurotlar berdi, balki ijtimoiy adolatsizlik muammolari haqida chuqur mulohaza yuritish uchun zamin yaratdi. Mazkur kuzatishlar va tajribalar Syuning ilk adabiy faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, uning keyingi ijodiy yo'nalishini belgilashda muhim omil bo'ldi.

Ejen Syuning dengiz mavzusiga oid romanlari va hikoyalari uning adabiy merosini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etgan. Ushbu dastlabki asarlarida u 1820-yillarning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan romantik an'analarni davom ettirib, ularni o'ziga xos tarzda rivojlantirgan. Bu asarlar tematik va uslubiy jihatdan Alfred de Myusse hamda Prospero Merime ijodi bilan bog'liq bo'lib, Shatobrian va Lamartin tomonidan namoyon etilgan ko'tarinki, ideallashtirilgan romantizmga nisbatan ancha realistik va dramatik yo'nalishda kechgan. Shu tariqa, Syu o'zining ilk asarlaridayoq fransuz romantik adabiyotidagi qarama-qarshi estetik oqimlar orasida o'ziga xos ijodiy pozitsiyasini shakllantirgan.

Bu davrda Syu mavjud ijtimoiy tuzumni tobora ilg'or nuqtayi nazardan tanqid qilgan, o'tmishni ideallashtirishdan voz kechib, e'tiborni kelajakka yo'naltirilgan konsepsiyalarga qaratgan. Bu holat uning ijodida muhim bosqichni tashkil etgan

bo'lib, yozuvchining ko'proq ijtimoiy yo'naltirilgan va islohotchilik ruhidagi g'oyalarga o'tganini yaqqol namoyon etgan.

Ejen Syuning "Latreomon" (1827) tarixiy romani uning g'oyaviy qarashlarining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu asarda yozuvchi demokratik qarashlarga yaqinlashib, monarxistik mafkuradan uzoqlashganini namoyon etgan. Reaksion tanqidchi Netman aynan shu yo'nalishga e'tibor qaratib, muallifning an'anaviy qirollik qadriyatlariga tanqidiy yondashuvini keskin baholagan. Ayniqsa, Lyudovik XIV ning salbiy tasviri tanqidchining noroziligiga sabab bo'lgan: Syu qirol shaxsining buyukligini rad etib, uning hukmronlik davrini shaxsiy fazilatlar emas, balki tashqi tarixiy-iqtisodiy omillar bilan bog'lagan. Bu pozitsiya yozuvchining ijtimoiy ongida yuz bergan o'zgarishlarni va tarixga nisbatan tanqidiy-realistik yondashuvini yaqqol aks ettirgan.

Ejen Syuning tarixiy romanlari XIX asr romantik adabiyotining hayotiy zaruratlaridan tug'ilgan badiiy shakl sifatida namoyon bo'ladi. Uning qalamiga mansub "Latreomon" va "Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari" kabi asarlar nafaqat tarixiy voqealarning badiiy ifodasi, balki jamiyat tafakkurining o'ziga xos aksadosidir. Muallif tarixiy faktlar va badiiy to'qima orasidagi nozik chegarani san'atkorona tarzda uyg'unlashtiradi, tarixiy obrazlar orqali zamonasining ijtimoiy-siyosiy murakkabliklarini yoritadi. Shu tariqa, Syu ijodi tarixni estetik idrok etishning yangi adabiy modeli sifatida shakllanadi, va romantizmning poetik tamoyillarini ijtimoiy mazmun bilan boyitadi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "Latreomon" romanida tarixiy kontekst" deb nomlangan bo'lib, unda Ejen Syuning tarixiy mavzudagi ilk jiddiy murojaatiga baho beriladi. Mazkur asarda muallif tarixiy voqealarni badiiy talqin etish orqali o'zining g'oyaviy-estetik qarashlarini ifodalashga intiladi. Roman syujeti murakkab dramatism va ijtimoiy-siyosiy ma'nodorlik bilan ajralib turadi hamda yozuvchining estetik pozitsiyasini ochib beruvchi muhim adabiy manba sifatida talqin etilgan.

Ejen Syu "Latreomon" romanida pozitivistik dunyoqarashga sodiqligini to'liq namoyon etgan. U romanlaridan birining so'zboshisida o'z zamonasini "mutlaqo pozitivistik" deb baholab, ijtimoiy voqelikni ilmiy asoslangan, empirik yondashuv orqali tushunishga intilganini bildirgan. Bu yondashuv, ayniqsa, "pozitivistik tamoyil"ni tanqid qilgan Sharl Nodye kabi romantik yozuvchilar pozitsiyasiga qarama-qarshi turadi. Shu tariqa, Syu o'zining tarixiy romanlarida nafaqat estetik, balki gnoseologik qarashlar borasida ham zamonaviylik va ratsionalizmni ilgari surgan.

1820-yillardagi fransuz tarixiy romani asosan "tarixiy roman Gomer"i deb atalgan Valter Skott ijodining kuchli ta'siri ostida rivojlandi.

B.G.Reizovning ta'kidlashicha, Fransiyada Valter Skott ijodini idrok etish o'ziga xos xususiyatga ega edi. Uning tarixiy romanlari fransuz inqilobi voqealari va o'sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolari nuqtai nazaridan talqin qilingan. Fransuz kitobxonlari va yozuvchilari Skott asarlarida nafaqat qiziqarli tarixiy hikoyalarni, balki 1789-yilning erkinlik, tenglik va birodarlik kabi asosiy tamoyillari haqida fikr yuritish uchun materialni ham topdilar. Skottning asarlari, shu tariqa, fransuz adabiyoti va madaniyatida ijtimoiy-siyosiy inqiloblarning ta'sirini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etdi, chunki u nafaqat tarixni tasvirlash, balki davrning g'oyaviy-madaniy rivojlanishiga ham e'tibor qaratgan.

Valter Skott ta'siridan tashqari, fransuz tarixiy romanining rivojlanishiga boshqa adabiy omillar ham ta'sir ko'rsatgan. Fransuz inqilobi davridayoq Kordovskiy va Florian tomonidan tarixiy syujetlarga asoslangan asarlar yaratilgan. Garchi ular XVIII asr adabiy an'alariga amal qilgan bo'lsalar-da, ularning asarlarida tarixiy haqiqatga yanada chuqurroq intilish mavjud bo'lib, bu holat tarixiy roman janrining alohida adabiy shakl sifatida shakllanishi uchun muhim zamin bo'lib xizmat qilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XIX asrning 1820-yillarida romantiklar tarixiy roman asoschilaridan biri sifatida nafaqat Valter Skottni, balki "Shahidlar" dostonining muallifi Fransua Shatobrianni ham e'tirof etganlar. Biroq, B.G.Reizovning ta'kidlashicha, "Shatobrian dostoni tarixiylik o'z faol ta'sirini faqat XIX asrning 20-yillarida Valter Skott romanlari Fransiyada tarixiy tafakkur shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri natijasidagina namoyon eta olgan".

Mazkur bobda Ejen Syuning tarixiy mavzuga birinchi jiddiy murojaati tahlil qilinadi; bu holat eng to'liq tarzda uning "Latreamon" ("Latreáumon", 1838) romanida namoyon bo'ladi, unda u dramaturgik jihatdan boy tarixiy syujet yaratishga urinadi. Asarda aks etgan ziddiyatli vaziyat Lyudovik XIV siyosatiga qarshi yo'naltirilgan yashirin siyosiy fitna atrofida rivojlanadi. Garchi tasvirlanayotgan voqealar mazkur tarixiy davr uchun markaziy ahamiyatga ega bo'lmasa-da, ular Fransiyada absolutizm gullab-yashnagan davrning xarakterli belgilarini aks ettiradi.

Syuning asarlari tarixiy romanning syujet-kompozitsion qurilishi an'alarining shakllanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qilgan Valter Skottdan farqli o'laroq, Ejen Syu o'z badiiy amaliyotida haqiqiy tarixiy shaxslarni tasvirlashga urg'u berdi. Skottda asosiy qahramonlar ko'proq hayoliy qahramonlar bo'lib, ularning taqdiri muhim siyosiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, Syuda real tarixiy shaxslar birinchi o'ringa chiqadi. Syuning badiiy yondashuvi, tarixiy voqealar va shaxslarning hayotini taqdim etishda an'anaviy tarixiy romandan farqli o'laroq, haqiqiy tarixni jonli tarzda va yanada ishonchli tasvirlashga intiladi. Bu, o'z navbatida, uning tarixiy romanlaridagi dramatik ta'sirni kuchaytirib, romanlarining ijtimoiy va siyosiy kontekstni yanada chuqurroq aks ettiradi.

Valter Skott romanlarida to'qima qahramonlar odatda markaziy o'rinni egallagan, ularning taqdiri esa kitobxon bilan tarixiy voqealar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'tagan. "Latreamon" romanida Ejen Syu, aksincha, real tarixiy qahramonlarga urg'u beradi, ularning nafaqat ijtimoiy faoliyatiga, balki shaxsiy hayotiga ham e'tibor qaratadi. Syuning yondashuvida tarixiy shaxslarning ichki dunyosi va shaxsiy qarorlarining tarixiy jarayonlarga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, romanlarni nafaqat tarixiy tafakkur nuqtai nazaridan, balki insoniy va psixologik jihatdan ham chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ejen Syuning "Latreamon" romani yozuvchining tarixga murojaat qilishdagi ilk dadil qadami sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda tarixiy voqealar shunchaki fon emas, balki muallifning g'oyaviy-estetik qarashlarini ifodalashga yo'naltirilgan badiiy platformaga aylanadi. Tarixiy kontekst orqali muallif o'z davrining siyosiy va ma'naviy ziddiyatlarini yoritadi, obrazlar orqali esa erkinlik, adolat va vijdon singari tushunchalarning zamonaviy talqinini beradi. "Latreamon" romani tarixiy roman janrining romantik talqindagi yangi bosqichini belgilab, Syuning ijtimoiy va badiiy qarashlarining shakllanishida muhim burilish nuqtasi sifatida qaraldi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli ““Latreomon” romanida maishiy tafsilotlarning xarakterli xususiyatlari” deb nomlanadi.

Haqqoniy tarixiy voqealarga murojaat qilish, xronika va memuarlarda nomlari qayd etilgan shaxslar atrofida syujet qurishga intilish yozuvchining asarga ma’lum darajada hujjatlilik baxsh etish istagidan dalolat beradi. Bu, o’z navbatida, Syuning yondashuvini Skott usulidan ajratib turadi va uning tarixni aniqroq va batafsilroq tasvirlashga intilishini ta’kidlaydi. Ejen Syuning o’zi ham bu jihatni ta’kidlab, “Izohlar va tegishli hujjatlar kitob muallifi badiiy to’qimadan butunlay voz kechib, tarixiy haqiqatning barcha talablariga bo’ysunganini yetarlicha ishonchli tarzda tasdiqlaydi”<sup>24</sup>, deb ta’kidlagan edi. Bu usul uning asarlarida tarixiy voqealar va shaxslar haqidagi ma’lumotlarning ishonchligini ta’minlab, kitobxonga tarixiy haqiqatga bo’lgan ishonchni kuchaytiradi.

“Latreomon” romanidayoq Alfred de Vingyning “Sen-Mar” asari bilan tipologik yaqinlik ko’zga tashlanadi.

Ejen Syu feodal-absolyut monarxiyani tanqid qilar ekan, avvalo Lyudovik XIV ning antidemokratik siyosatini qoraladi. Muallif, qirolni “tajovuzkor” va “bosqinchilik”<sup>25</sup> deb ta’riflab, uning olib borgan doimiy “jinoiy” va “bosqinchilik” urushlarining mamlakatning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko’rsatganini ko’rsatadi. Shu bilan birga, Ejen Syu monarxiya rejimining eng qudratli davridayoq zaiflashish alomatlarini sezgan. Bu esa uning tarixiy romandagi badiiy yondashuvini yanada boyitadi, chunki yozuvchi siyosiy tuzumning qachon va qanday zaiflashishini ilg’ab, tarixiy jarayonlarni chuqurroq tahlil qilishga intiladi.

Tarixiy davrning o’ziga xos xususiyatlari va o’sha davrning ijtimoiy xulq-atvorini obyektiv nuqtayi nazardan taqdim etgan Ejen Syu, monarxiyaning ag’darilishiga va Yevropa siyosiy manzarasida sezilarli o’zgarishlarga olib kelishi mumkin bo’lgan Lyudovik XIV ga qarshi fitna bilan bog’liq voqealarni badiiy idrok etishga o’tadi. U o’zining “Latreomon” romanida, tarixiy voqealarni faqatgina faktlar orqali emas, balki o’sha davrning ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazaridan, tanqidiy va chuqur badiiy idroki orqali tasvirlaydi. Bu orqali Ejen Syu, tarixiy voqealarning faqat ko’rinishlarini emas, balki ularning jamiyat va siyosatdagi chuqur ildizlarini ham o’rganishga harakat qiladi.

Ejen Syuning asari kompozitsion jihatdan ikki asosiy qismga bo’linadi: birinchi qism syujetning siyosiy kontekstini belgilab beruvchi kirish bo’lib xizmat qiladi, ikkinchisi esa asosiy voqealar rivojini tashkil etadi. Asarning tuzilishi bir nechta syujet chiziqlarining parallel rivojlanishiga asoslanadi, bu esa har bir asosiy personajning hayot yo’li va ichki motivlarini chuqur yoritish imkonini beradi. Har bir bob muayyan qahramonning tarjimai holiga bag’ishlanib, alohida tematik birlik sifatida shakllanadi. Bunday yondashuv “Jyul Dyamel de Latreomon”, “Metr Affinius Van den Enden” kabi boblarning sarlavhalarida yaqqol namoyon bo’ladi va asarda ko’p qatlamli syujet strukturasi vujudga keltiradi. Bu uslubiy yechim roman kompozitsiyasini murakkablashtiribgina qolmay, balki har bir obrazning tarixiy va psixologik tahliliga chuqur kirib borish imkonini ham yaratadi.

Epizodlarning go’yoki ixtiyoriy tarzda almashinayotgandek tuyulishi dastlab noto’g’ri taassurot uyg’otadi. Aslida esa romanning birinchi qismi aniq kompozitsion

<sup>24</sup> Sue E. Latréaumont. Bruxelles, 1838. P.1-2.

<sup>25</sup> Sue E. Latréaumont. Bruxelles, 1838. P.1-5.

tuzilishga ega bo‘lib, umumiy harakatning yaxlit manzarasini shakllantiruvchi o‘zaro bog‘liq sahnalar tizimiga asoslanadi. Syujet chiziqlari o‘zaro muvofiqlashtirilgan tarzda rivojlanadi va ularning barchasi Latreomon obrazida yakdillik kasb etadi. Aynan shu obraz atrofida syujet chiziqlarining birlashuvi asarning asosiy mavzusini ochish va uni izchil tarzda kuzatishga imkon yaratadi. Bu esa muallifning badiiy konsepsiyasini mantiqiy va uslubiy jihatdan puxta amalga oshirganini ko‘rsatadi.

Ejen Syuning “Latreomon” va “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” asarlari tahlili natijasida muallif XIX asrning birinchi yarmidagi fransuz tarixiy romantik romanining o‘ziga xos modelini shakllantirgan holda tarixiy va romantik diskurs elementlarini uyg‘unlashtirganligi aniqlandi. Ejen Syu romantizmning asosiy mavzulari - ozodlik uchun kurash, qahramonning ichki fojiasi, shaxs va hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarga izchillik bilan murojaat qiladi va badiiy vositalarning boy zaxirasidan foydalanadi: kontrast ramzilar, psixologik tafsilotlar, xronikal hikoya usullari va gotik motivlar. Syu asarlarining Fransiya va undan tashqaridagi tarixiy roman rivojiga ta’siri, syujet chiziqlari va xarakterlarning shakllanishida tarixiy kontekstning muhim roli aniqlangan. Shunday qilib, Ejen Syu ijodi fransuz tarixiy romani evolyutsiyasida muhim bosqich bo‘lib, janrning yanada ijtimoiy va hissiy jihatdan boy shaklga o‘tishini aks ettiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” asarida ilk an’anaviy tarixiy roman janri belgilarining ifodasi**” deb nomlangan va uch fasldan iborat. Ushbu bobning birinchi fasli “Ejen Syu romanida Nant farmonining bekor qilinishi voqeasi: tarixiy hodisaning badiiy-estetik talqini (“Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” asari misolida)” deb ataladi.

Ejen Syuning mazkur romani dastlab *Revue de Paris* jurnalida felyeton shaklida bosilgan bo‘lib, “Seven arxipresviteri” nomli birinchi bo‘limi 1839-yil noyabridan 1840-yil yanvarigacha, “Go‘zal Izabo” nomli ikkinchi bo‘limi esa 1840-yil yanvaridan aprelegacha chop etilgan. Shu yili, ya’ni 1840-yilda asar “Jan Kavalye, yoki Seven fanatiklari” nomi bilan to‘rt jildli alohida kitob shaklida nashr qilingan. Mazkur nashr Syuning tarixiy roman ijodidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, uning badiiy-uslubiy tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Ejen Syu “Jan Kavalye, yoki Seven fanatiklari” romanida 1685-yilda Nant farmonining bekor qilinishi oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy tanglikni tarixiy-badiiy tahlil asosida yoritadi. Muallif protestantlarning ommaviy ta’qib qilinishi va Seven qo‘zg‘oloni kabi voqealarni mutlaq monarxiya va katolik cherkovi zulmining tanqidi sifatida talqin etadi. Syuning mavzuni tanlashi nafaqat davr adabiy tendensiyalari, balki o‘quvchilarning tarixiy adolat, xalq qahramonligi va diniy bag‘rikenglik haqidagi intilishlari bilan ham uyg‘unlashadi. Ushbu yondashuv romanni ijtimoiy tanqid va tarixiy xotiraning muhim badiiy shakli sifatida namoyon etadi.

Ejen Syuning “Jan Kavalye, yoki Seven ishqibozlari” romanida protestantlar obrazi markaziy o‘rin tutadi. Yozuvchi ularni faqat tashqi ko‘rinishlari yoki turmush tarzlari bilan tasvirlab qolmay, balki ularning dunyoqarashini, iymonini va kurashga bo‘lgan qarashlarini ham chuqur tahlil qiladi. Syu protestantlarni faqat diniy jihatdan ko‘rmaydi, balki ularni o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun kurashayotgan, diniy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari bor xalq sifatida tasvirlaydi. Ularning dunyoqarashi va kurashga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatish orqali, muallif Seven

qo'zg'olonining tashqi sabablaridan ko'ra, uning ichki motivlarini – adolat va erkinlik uchun kurashayotgan insonlarning his-tuyg'ulari va g'oyalarini yoritadi. Bu yondashuv keyingi davr yozuvchilariga ta'sir ko'rsatdi, chunki Sevens qo'zg'oloni mavzusiga murojaat qilgan keyingi asarlarda protestantlarning diniy, shaxsiy va siyosiy isyonlari, jamiyatdagi o'rinlarini himoya qilishga intilishlari chuqurroq tahlil qilingan. Ejen Syu o'z asarida zamonaviy adabiyotda ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashning asosiy g'oyalarini ilgari suradi<sup>26</sup>.

Ejen Syu protestantlik ongining xususiyatlarini gugenotlar tili va tafakkuriga asoslangan hujjatli manbalar orqali tasvirlaydi. Masalan, bir oyatda “Dornak ham, uning oilasi ham, bechora birodarlarimizga qarshi qilgan ishlari yuragimizga qonli harflar bilan yozilgani uchun ogohlantirilganmiz”<sup>27</sup>, deb ta'kidlanadi. Bu Syu tomonidan gugenotlarning diniy kurashi va ularning ichki ruhiy holatining chuqur tahlilini ko'rsatadi. U, shuningdek, tarixiy voqealarni nafaqat badiiy, balki hujjatli asosda tasvirlaydi, bu esa adolat va haqiqat uchun kurashayotgan gugenotlarning ijtimoiy va diniy tafakkurini yoritadi.

Ejen Syuning “Jan Kavalye, yoki Sevens ishqibozlari” romanida Nant farmonining bekor qilinishi syujet asosiga aylantirilib, tarixiy voqelik individual taqdirlar va dramatik ziddiyatlar orqali badiiy ifoda etiladi. Muallif diniy ta'qiblar, erkinlik uchun kurash va insoniy matonatni romantik-estetik ruhda talqin etadi. Asar tarixiy faktlar va badiiy to'qimaning uzviy uyg'unligi bilan ajralib turadi, bu esa uni nafaqat adabiy, balki madaniy-tarixiy kontekstda ham muhim manbaga aylantiradi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Jan Kavalye, yoki Sevens ishqibozlari” romanida tarixiy voqelikning badiiy talqini” deb nomlanadi.

Ejen Syuning ijodi diniy ongning chuqur tahlili bilan ajralib turadi, bu xususiyatini XX asr yozuvchilarining tadqiqotlari bilan taqqoslash mumkin. Uning asarlari fransuz tarixiy romanida kamizarlarni tasvirlash an'anasini yaratdi va bu an'ana keyingi adabiy talqinlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Protestant dunyoqarashini tadqiq etishda personajlar nutqining o'ziga xos xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Ejen Syu, ayniqsa, Jan Kavalyeyning nutqida bu xususiyatlarni aniq ko'rsatadi. Bosh qahramon, diniy mutaassib bo'lmasa-da, o'z nuqtai nazarini boshqalariga o'tkazish uchun mohirona ritorik usullarni qo'llaydi. Uning nutqida Injildan olingan iqtiboslar va tasvirlar asosiy rol o'ynaydi, bu esa Jan Kavalyeyga suhbatdoshlarini o'z haqligiga ishontirishga yordam beradi. Bu usul, protestantlarning diniy va ijtimoiy qarashlarini taqdim etishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Nutq orqali qahramonlarning dunyoqarashi va ichki kurashlarini o'rganish, Syuning asaridagi diniy va ijtimoiy motivlarning chuqur tahliliga imkon yaratadi.

Ejen Syu romanlarida tarixiy nasrning dastlabki namunalari xos xususiyatlar sifatida davr muhitiga batafsil sho'ng'ish, mahalliy urf-odatlar, kundalik hayot va Sevens aholisining an'analari va urf-odatlariga katta e'tibor qaratiladi. Yozuvchi o'z asarlarini yaratishda har bir detalni, shu jumladan, jamiyatning ijtimoiy strukturasi, diniy qarashlarini va ijtimoiy-siyosiy tizimini chuqur tahlil qiladi. Syu kitobxonlarga faqat tarixiy voqealarni emas, balki ularning hayot tarzini, urf-odatlarini, xatti-

<sup>26</sup> Шутова И.И. Исторические романы Эжена Сю: дис. ... канд. филол. наук. – Пермь, 1985. – 192 с. – Шифр спец.: 10.01.05.

<sup>27</sup> Les Camissard à leurs confrères de Bagnols. Cité par Almeras Charles. La révolte des Camisards. Grenoble: Arthaud, Paris, 1960. P.232-233.

harakatlarini va eng kichik tafsilotlarni tasvirlash orqali o'sha davrni jonli va real tarzda taqdim etadi. Bu yondashuv romanlarga haqiqatdan yondoshgan muhitni yaratadi va tarixiy asarlarning badiiy qiymatini oshiradi.

“Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqi bozlari” romanining diqqatga sazovor jihati – personajlar tipologiyasining xilma-xilligidir. Ejen Syu tarixiy shaxslar, badiiy to'qima va real prototiplarga asoslangan obrazlarni uyg'unlashtirgan holda, XVII asr oxiri – XVIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit va axloqiy ziddiyatlarni badiiy talqin etishga erishadi. Bunday uslub roman strukturasi va tarixiy roman janrining rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Roman bosh qahramoni Jan Kavalye obrazining yaratilishida Ejen Syu tarixiy faktlarga tayangan. Sevenshlik dehqonining o'g'li, oddiy novvoy bo'lgan Kavalye qo'zg'olon boshchiligiga tezda ko'tariladi. Ushbu o'zgarish, o'sha davrda, jamiyatning qarashlari nuqtai nazaridan, noaniq va tushunarsiz bir hodisa sifatida qabul qilinishi mumkin. Muallif bu obrazni shakllantirish orqali, xalqdan chiqqan, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirgan bir shaxsni aks ettiradi. - *Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqi bozlari romanida Jan Kavalye — fermerning yigirma ikki yoshli to'ng'ich o'g'li bo'lib, akasi Gabriel va singlisi Sevesta singari moviy ko'zli, sariq sochli edi. Uning yuzida endigina yengil soqol o'sib chiqayotgan bo'lsa-da, allaqachon aniq va tiniq chiziqlar unga jonlilik va ifodalilik bag'ishlagan edi. U baquvvat, o'rtacha bo'yli yigit bo'lib, otasiga o'xshab qalin matodan tikilgan jigarrang kurta kiyardi. Biroq, uning kiyimida sezilarli farqlar bor edi: yupqa ko'ylagining yoqasini bezab turgan ikkita nafis kumush tugma va chiroyli yashil bant uning didini ifodalilar, baland sariq getralar esa oyoqlarining kuchi va chaqqonligini alohida ta'kidlab turardi*<sup>28</sup>. - *Dans le roman Jean Cavalier ou Les Fanatiques des Cévennes, Jean Cavalier – le fils aîné d'un cultivateur, âgé de vingt-deux ans – partage les yeux bleus et les cheveux blonds de son frère Gabriel et de sa sœur Céleste. Un début de barbe légère commençait à apparaître sur son visage, mais ses traits marqués lui conféraient déjà vivacité et expressivité. Il était robuste et de taille moyenne, portant une veste marron en tissu épais, comme son père. Toutefois, sa tenue se distinguait par des détails : deux élégants boutons en argent ornant le col de sa chemise fine, un ruban vert délicat, et de hautes jambières jaunes qui soulignaient à la fois la finesse et la force de ses jambes*<sup>29</sup>.

“Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqi bozlari” romanida qahramonlarning tasviri nafaqat muallif, balki boshqa qahramonlarning fikr-mulohazalari orqali ham shakllanadi<sup>30</sup>. Bu yondashuv xarakterlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, chunki boshqalar tomonidan berilgan baholar qahramonlarning ichki dunyosini va shaxsiyatini yangi nuqtai nazardan ko'rsatadi. Ejen Syu buni ijtimoiy va psixologik jihatdan murakkab obrazlar yaratishda qo'llaydi.

Boshqa qahramonlarning fikr-mulohazalari orqali tasvirlash usuli, kitobxonlarga qahramonning shaxsiyatini ko'p qatlamli va turli nuqtai nazarlardan idrok etishga imkon beradi. Bu yondashuv Jan Kavalye kabi murakkab qahramonning psixologik va jismoniy portretini yaratishda, uning xarakterini chuqur va ko'p o'lchovli tarzda ochishga xizmat qiladi. Natijada, tasvirlangan qahramon nafaqat voqelikda, balki

<sup>28</sup> [https://librebook.me/jan\\_Kavalye/vol1/1](https://librebook.me/jan_Kavalye/vol1/1) (murojat sanasi: 21.01.2023)

<sup>29</sup> Sue, É. Jean Cavalier, ou Les Fanatiques des Cévennes. – T. 1. – Paris: Paulin, 1846. – 460 p.

<sup>30</sup> [https://librebook.me/jan\\_Kavalye/vol1/1](https://librebook.me/jan_Kavalye/vol1/1) (murojat sanasi: 21.01.2023)

mifologik darajada ham talqin qilinadi. Bunday usul, shuningdek, qahramonning shaxsiyati va uning boshqa shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarini murakkabroq va boyroq tushunishga yordam beradi.

“Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanida Ejen Syu tarixiy voqelikni badiiy talqin qilish orqali XVII–XVIII asrlar chegarasidagi Fransiya ijtimoiy-siyosiy hayotining murakkab manzarasini ta’sirchan yoritgan. Asarda Nant farmonining bekor qilinishi oqibatlarini, hugenotlarning taqdiriga oid dramatik lavhalar, shaxsiy va tarixiy konfliktlar uyg‘un tarzda ifodalangan. Muallif tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi nozik chegarani ushlab, voqelikni estetik va ideologik jihatdan boyitilgan shaklda aks ettiradi. Shu tariqa, roman nafaqat o‘tmishni aks ettirish, balki u orqali muayyan g‘oyaviy-axloqiy va jamiyatshunoslik masalalarini ko‘tarish imkonini beruvchi adabiy vositaga aylanadi.

Bobning “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanida obraz yaratishning badiiy xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobida Ejen Syuning tarixiy obrazlarni badiiy talqin etish uslubi tahlil qilindi. Asarda tarixiy voqealar fonida vijdon erkinligi, diniy e’tiqod va fuqarolik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan qahramonlar obrazlari shakllantirilgan. Muallif tarixiy faktlarga sodiq qolgan holda, obrazlarning xarakteri va ichki kechinmalarini chuqur psixologik tahlil orqali ochib bergan. Har bir qahramon jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va tarixiy burilishlarning ramziga aylandi. Shu tariqa, Syuning obraz yaratish san’ati tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uzviy uyg‘unligi asosida namoyon bo‘ldi.

“Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanida to‘qima qahramonlar muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa saroy aktrisasi Tuanon. Uning voqeaga qo‘shilishi fantastika elementlarini kiritadi va voqealarni yanada murakkablashtiradi. Tuanon, Villarning topshirig‘i bilan, Jan Kavalye bilan munosabatlarni rivojlantiradi, bu esa uning yarashuvga bo‘lgan qarorini shakllantirishda asosiy omilga aylanadi. Tuanonning roli, to‘qima epizod sifatida, tarixiy voqeaga bevosita ta’sir ko‘rsatib, syujetning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Bu yondashuv, voqealar va personajlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni yaratadi.

Ejen Syuning “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanida komik element, Tuanonning doimiy hamrohi bo‘lgan Taburo obrazi orqali kiritilgan. Taburoning sarguzashtlari syujetning jiddiy va dramatik yo‘nalishlariga qarama-qarshi ravishda, hikoyaga yengillik va ko‘ngilocharlik olib keladi. Uning obrazining komik xususiyatlari, roman ichidagi kuchli ijtimoiy va diniy ziddiyatlarga nisbatan, kitobxonlarga nafaqat ko‘ngil ochish, balki hikoyaning balansi va turli qatlamlar orasidagi kontrastni yaratish imkonini beradi. Bu orqali Syuning asariga ko‘proq rang-baranglik, va syujetga o‘ziga xos boylik kiritiladi.

Ejen Syu “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanida xarakter yaratish jarayonida qahramonning psixologik holatiga katta e’tibor qaratadi, ayniqsa uning ichki ziddiyatlariga. Kavalyening xarakteri diniy burch va shaxsiy shuhratparastlik o‘rtasidagi kurash orqali tasvirlanadi, bu uning ichki dunyosining murakkabligini ochib beradi. Ushbu psixologik dinamika, Kavalyening shaxsiy motivlarining ijtimoiy va diniy majburiyatlar bilan to‘qnashuvini aks ettiradi, bu esa uning qarorlaridagi ikkilanish va ichki kurashlarni kuchaytiradi. Bu yondashuv Syuga xarakterning chuqur va ko‘p qatlamli tasvirini yaratishga imkon beradi, uning shaxsiy dilemmalari esa romanning asosiy dramatik kuchini tashkil etadi: - *La prise d'une*

*décision importante dans la solitude engendre chez le héros un sentiment d'aliénation vis-à-vis de la cause commune. Ce sentiment de solitude se manifeste comme amer et douloureux. Toutefois, la réflexion sur l'avenir que lui promet Psyché ouvre au héros une nouvelle perspective. Il comprend que ses actions, d'abord perçues comme destructrices, pourraient en réalité mettre fin à une guerre cruelle et le conduire au service de l'armée royale, ce qui rend son choix plus légitime et héroïque*<sup>31</sup>. - “Muhim qarorni yolg‘iz qabul qilish qahramonda begonalik hissini uyg‘otadi, bu hissiyat achchiq va qayg‘uli bo‘lib, uning ichki dunyosini chuqurlashtiradi. Shunga qaramay, Psixeya tomonidan va‘da qilingan kelajakni o‘ylash qahramonga yangi istiqbol ochadi. U dastlab halokatli deb hisoblangan harakatlarining aslida shafqatsiz urushni tugatib, qirollik armiyasida xizmat qilish imkonini berishini anglaydi, bu esa uning tanlovini yanada asosli va qahramonona qiladi”<sup>32</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Ejen Syuning “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romani tahlil qilinib, XIX asr boshlaridagi an‘anaviy tarixiy romanga xos bo‘lgan janr belgilari mavjudligi aniqlangan. Muallif tarixiy voqealarni, xususan, qomizlarlar qo‘zg‘olonini hujjatli asosda aks ettirishga alohida e‘tibor qaratadi, hikoya qilishning xronikal tamoyilini amalga oshiradi, matnga tarixiy shaxslarni kiritadi, shuningdek, janrga xos tarixiy haqiqatni saqlaydi. Biroq, qahramonlik, axloqiylik va obrazlarning ichki dramaturgiyasiga urg‘u berilishi romantik poetikaning ta‘sirini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” Ejen Syuning individual badiiy usullarini kanonik elementlar bilan birlashtirgan va tarixiy roman janrining tipik namunasini tashkil etadi. Roman an‘analar va shaxslar kesishmasida shakllanadigan tarixiy hikoyaning mualliflik konsepsiyasini yaratishda muhim bosqichni aks ettiradi.

## XULOSA

1. Fransiyada 1830-yillar romantizm davri adabiyoti tarixiy roman janrining rivojida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda roman janri tarixiy voqelikni badiiy tasavvur bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi sifat darajasiga ko‘tarildi. Bu tendensiya klassitsizmning ratsional g‘oyalaridan yuz o‘girib, tarixga emotsional va falsafiy yondashuvni namoyon etadi.

2. Romantik tarixiy roman nafaqat Fransiya va Yevropadagi tarixiy voqealarning badiiy in‘ikosi, balki o‘sha davrning g‘oyaviy-siyosiy intilishlarini ham o‘zida ifoda etadi. Ejen Syu va Aleksandr Dyuma kabi mualliflar erkinlik, adolat va milliy o‘zlik uchun kurash g‘oyalarini liberalizm, respublikachilik va ijtimoiy yangilanish g‘oyalari orqali yoritadilar. Shu tariqa, tarixiy roman jamiyat tafakkurining ifodasiga aylanib, o‘quvchida o‘tmish va bugungi kunga tanqidiy munosabat uyg‘otadi.

3. XIX asrdagi tarixiy romanning badiiy xususiyati XVIII asrdagi ob‘ektiv tarixiylikdan voz kechib, tarixni shaxsiy tajriba asosida so‘zlashga o‘tganida ko‘rinadi. Ejen Syu ijodi hujjatli tarixiy tasvirlar va qahramonlarning shaxsiy kechinmalarini uyg‘unlashtirishga intiladi. Bu esa adabiy rivoyada yangi o‘lchamni

<sup>31</sup> Interprétation de l'évolution psychologique du protagoniste dans le contexte narratif du roman Jean Cavalier, ou les Fanatiques des Cévennes d'Eugène Sue. Traduction et commentaire réalisés par l'auteur du travail de recherche. (murojat sanasi: 21.01.2023)

<sup>32</sup> [https://librebook.me/jan\\_Kavalye/vol1/1](https://librebook.me/jan_Kavalye/vol1/1)(murojat sanasi: 21.01.2023)

vujudga keltiradi – tarix inson qalbi va ma’naviy mohiyatini anglash vositasiga aylanadi.

4. Ejen Syu XIX asr tarixiy roman janri rivojida markaziy o‘rinni egallab, janr doirasiga chuqur ijtimoiy va psixologik omillarni kiritadi. Uning romantik estetika va realistik tahlilni uyg‘unlashtirgan innovatorlik yondashuvi tarixiy romanni keng omma uchun, xususan, quyi va o‘rta ijtimoiy qatlamlarga moslashtirish imkonini yaratadi.

5. “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” va “Latreomon” romanlarida muallif real tarixiy voqealarni shaxsiy fojealar va ma’naviy tanlovlar tarkibiga ustalik bilan singdiradi. Qahramonlar erkinlik, qarshilik va ijtimoiy adolat timsollariga aylanib, o‘z zamonasining ramziy obrazlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa Ejen Syu ijodining g‘oyaviy-estetik ahamiyatini yanada oshiradi.

6. Ejen Syu nasrining muhim xususiyati – bu ko‘pqatlamli hikoya qilish manerasi bo‘lib, tarixiy voqealar shaxsiy fojealar tahlili bilan bog‘lanadi. Muallif shunday personajlar tizimini yaratadiki, ular orqali zamondoshlar uchun dolzarb va bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan axloqiy-falsafiy muammolar ochib beriladi.

7. “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romani tarixiy roman janri rivojlanishining dastlabki bosqichiga xos bo‘lgan namuna sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Unda hujjatlilik va romantika samarali uyg‘unlashgan. Ejen Syu Fransiyadagi diniy urushlar muhitini mavhumlikka yo‘l qo‘ymasdan, aniq va ta’sirchan ifodalay oladi. Shu bilan birga, muallif asar qahramonlarining ichki transformatsiyalariga alohida e’tibor qaratib, rivoyatga kuchli emotsional ta’sirchanlik va falsafiy teranlik bag‘ishlaydi.

8. “Jan Kavalye, yoki Sevensh ishqibozlari” romanidagi epik tasvir va uslubiy ifodaviylik tarixiy mif obrazini shakllantiradi. Asardagi fojeaviylik va qahramonlik ramziy ma’noga ega bo‘lib, syujetning dinamik rivoji va yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar o‘quvchida kuchli tarixiy tasavvur uyg‘otadi.

9. “Latreomon” romani muallif ijodidagi yetuk bosqichni ifodalaydi. Unda tarixiy material orqali zulm, xiyonat va ma’naviy tanazzul mavzulari yuzaga chiqadi. Bu asarda Syu tarixiy qahramonlarning afsonaviylashtirilishini inkor etadi va hokimiyat, siyosiy zo‘ravonlik mexanizmlarini tahlil qiladi. Bu esa romantik idealizmdan ijtimoiy realizmga o‘tish jarayonini namoyon etadi.

10. Ejen Syu va Valter Skott ijodiyotini taqqoslash orqali ularning tarixiy nasrga nisbatan yondashuvidagi farqlarni ko‘rish mumkin. Agar V. Skott etnografik aniqlik va maishiy muhitni qayta tiklashga e’tibor bersa, E. Syu ijtimoiy ziddiyat va sinfiy to‘qnashuvlarga urg‘u beradi. Shu bois, uning ijodini tarixiy roman janridagi yangi – ijtimoiy yo‘naltirilgan tarixiylik yo‘nalishining asosi deb baholash mumkin.

11. Ejen Syu badiiy merosi XIX asr Yevropa va jahon adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning asarlari tarixiy xotira, ijtimoiy adolat va inson erkinligi masalalarini yoritib, hozirgi adabiy tafakkur va gumanitar fanlar uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari kelgusida janr poetikasi, romantik rivoyat va madaniy xotira sohalarida yangi ilmiy izlanishlarga zamin yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА**

**ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАНЦУЗСКИХ  
ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНОВ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНОВ ЭЖЕНА СЮ  
«ЛАТРЕОМОН» И «ЖАН КАВАЛЬЕ, ИЛИ ФАНАТИКИ СЕВЕНН»)**

**10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/Fil4594.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском, английском) размещен на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Икромхонова Фируза Икромовна  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Каршибаева Улжон Давировна  
доктор филологических наук, профессор

Садуллаева Нилуфар Азимовна  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** Джизакский государственный педагогический  
Университет

Защита диссертации состоится «26» сентября 2025 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (+99866) 238-29-37; Факс: (+99878) 210-00-18, e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрированной под № 61991 Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (+99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «10» сентября 2025 года.  
(Реестр протокола рассылки № 33 от «10» сентября 2025 года)



**Н.З.Насруллаева**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

**У.У.Кулдошов**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

**Д.А.Киселёв**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении французский исторический роман признан одним из ведущих жанров, в котором органично синтезированы историческая реальность и художественно-эстетическое выражение. Французские исторические романы, сформировавшиеся в XIX веке, выполняли не только функцию отражения исторических событий, но и служили формой художественно-эстетического выражения общественного сознания, нравственных ориентиров и гуманистических идей, а в произведениях таких авторов, как Александр Дюма, Эжена Сю и Проспера Мериме<sup>33</sup> являлись синтезом исторического материала, мифологических мотивов и художественного вымысла в рамках целостной эстетической системы и способствовали формированию нового этапа в эволюции жанра романа. Анализ французского исторического романа сохраняет актуальность в современном мировом литературоведении, поскольку сложная взаимосвязь между историческими фактами и художественным вымыслом обуславливает формирование глубокого идейного содержания и способствует раскрытию мировоззренческих, нравственно-философских и эстетических концептов произведения.

Во всемирной филологической науке французский исторический роман рассматривается как универсальная модель художественно-эстетической интерпретации исторической действительности. Исторические романы, сформировавшиеся во французской литературе XIX века, стали формой художественной интерпретации исторической действительности. Они позволили осмыслить на эстетическом уровне социально-политические проблемы эпохи и сформировали оригинальную идейно-эстетическую систему, в которой посредством художественных образов отражаются такие актуальные темы, как социальная несправедливость, национально-освободительные движения, а также религиозные и идеологические конфликты. В современных литературоведческих исследованиях анализ французского исторического романа осуществляется с опорой на постструктуралистские, историко-культурные и интертекстуальные подходы, что определяет его как актуальное и методологически значимое направление в контексте филологических наук.

В период независимости в узбекском литературоведении наблюдается усиление интереса не только к научным традициям западной литературы, но и к передовым достижениям мировой художественной мысли, в частности, французской литературы. Особое внимание уделяется исследованию индивидуально-стилевых особенностей писателей и ученых, обладающих международным признанием. Как подчёркивает Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, «Каждое государство и каждая нация в мире сильны прежде всего своим интеллектуальным потенциалом, высокой духовностью. А источником этой непобедимой силы являются книги и

---

<sup>33</sup> Dumas A. *Les Trois Mousquetaires*. – Paris: Baudry, 1844. – 8 t., Sue É. *Les Mystères de Paris*. – Paris: Baudry, 1843–1844. – 10 t., Mérimée P. *Carmen*. – Paris: Michel Lévy, 1846. – 160 p.

библиотеки – великое открытие человечества»<sup>34</sup>. В отличие от прежних исторических периодов, в мировой литературе происходит трансформация традиционной биполярной модели в многоуровневую, мультиполярную систему литературных взаимосвязей.

